



## BOZOR IQTISODIYOTI VA UNING TAMOYILLARI

*Imomova Gõzal Qõchqorovna*

*Qarshi Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi. Katta o‘qituvchi. Biznes asoslari fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti va uning mazmunini bayon qilinib, uning asosiy belgilari, subyektlari va rivojlanish bosqichlari talqini haqida fikr yuritiladi. Bozor iqtisodiyotining doimiy va asosiy shakllari tahliliga ham o‘rin beriladi. Mavzu bozor va uning turlari, bozor infratuzilmasi, uning tarkibiy qismlari hamda elementlari hamda O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichlarini yoritib berishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** bozor iqtisodiyoti, konsern, raqobat, tadbirkorlik, korxona, iste’molchi, shaxsiy erkinlik, transport, uy xo’jaligi.

**KIRISH.**

Bozor iqtisodiyoti tushunchasi tovar ishlab chiqarish, ayrboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiluvchi va boshqariluvchi iqtisodiy tizim hisoblanadi. Bozor munosabatlarida iqtisodiyot erkin tovar-pul munosabatlariga asosiga rivojlanadi, uning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati turadi. Hozirgi davr iqtisodiyotida bozor iqtisodiyoti deganda bozor xo’jaligi subyektlari iqtisodiy xatti-harakatlarining erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning tovar-pul mexanizmi orqali bir-biriga bog’lanib muvofiqlashuvi sifatida qaraladi. Bozor iqtisodiyotida bozor aloqalari butun tizimni, uning hamma bosqichlarini ishlab chiqarish, ayrboshlash, taqsimlash va iste’mol jarayonlarini hamda iqtisodiy munosabatlaming barcha subyektlarini qamrab oladi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA**

Bozor iqtisodiyoti moliyaviy iqtisodiy tizimdir. Ayni shu jihatdan maqolada asosan, iqtisodiy va moliyaviy manbalar, bozor iqtisodiyotining takomilini tashkil etuvchi tuzilmalar faoliyati yoritilgan ma‘ruzalar manbalaridan foydalanildi.



Maqolani yozish davomida eksperiment, xulosa chiqarish, analiz va sintez metodlari qo'llanildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyotining tarixan tarkib topgan ikki turi mavjud. Birinchisi klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti deb atalib, uzoq vaqt davomida shakllanib, g'arbdagi rivojlangan mamlakatlarda XIX asming oxirlarigacha davom etgan. Xususiy mulkchilikka asoslangan holda iqtisodiy faoliyat yuritish; kapital va ishlab chiqarishning korxona miqyosida umumlashganligi; tadbirkorlar, ishchilar, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilaming shaxsiy erkinligi; tadbirkorlaming yuqori foyda olish uchun kurashlari; iqtisodiyotning talab va taklif, erkin bozor narxi va raqobat kurashlari asosida artiblanishi; aholining ijtimoiy himoya qilinmasligi, ishsizlikning va aholi ijtimoiy tabaqlashuvining kuchayishi uning asosiy belgilaridandir. Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko'rinishi hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti deb atalib, XIX asming oxiri va XX asr boshlaridan buyon mavjud. Bozor iqtisodiyotni tartibga solib turish vazifasini talab, taklif, raqobat va narxlar yordamida bajaradi. Bozor infratuzilmasining banklar, sug'urta kompaniyalari, soliq va bojxona idoralari kabi muassasalari moliya-kredit munosabatlarida alohida o'ziga xos o'ringa ega hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti subyektlarini moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash bozor infratuzilmasining axborot xizmati idoralari, shu jumladan auditorlik firmalari zimmasidagi vazifa bo'lib, auditor firmalar-korxona, ftrma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boruvchi, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazuvchi idora hisoblanadi. Ular odatda aksioner jamiyat yoki kooperativ shaklda faoliyat ko'rsatadi va to'liq mustaqillikka ega. Auditor firmalar o'z ishini har bir mamlakatda yoki xalqaro miqyosda qabul qilingan hisob-kitob va taftish qoidalariga binoan olib boradi. Auditor firma ishida qatnashuvchi taftishchilar auditorlar deb ataladi. Shunday qilib, bozor infratuzilmasi va uning qarab chiqilgan unsurlari barcha bozor turlarining faoliyat ko'rsatishi hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlami tartibga solishni ta'minlaydi. Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlari umumlashtirilib, quyidagi uchta asosiy turga bo'lingan:



1. Rivojlangan mamlakatlar yo'li. 2. Rivojlanayotgan mamlakatlar yo'li. 3. Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li. 4. Sotsializm g'oyalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mexanizmi bilan qo'shib olib borish yo'li (Xitoy, Vietnam).

Bu yo'llar turli-tuman va har xil bo'lishiga qaramay ularda bozor iqtisodiyoti subyektlari tarkibiga tadbirkorlar, yollanma ishchilar, pirovard iste'molchilar, ssuda kapitali egalari va qimmatli qog'ozlar egalari ham kiritilgan. Tadbirkorlik iqtisodiyotning harakatga keltiruvchi kuchi hisoblanadi. Tadbirkorlik, umuman pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olish manbayidir. O'zbekistonda ham Oliy Majlis tomonidan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, bozorga xos iqtisodiy mexanizmni yaratishga oid 400dan oshiq qonunlar qabul qilingan bo'lib, bu davlatimizda iqtisodiyotni rivojlantirishga katta ahamiyat berilayotganidan dalolatdir. O'zbekistonda qonunlar ustuvor, hamma unga babbaravar rioya etishi shart. Qonunchilik iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Davlat qonunlarni ishlab chiqish bilan cheklanmay, ularning amalda joriy etilishini ham ta'minlab kelmoqda. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi uning siyosatida ifodalanadi. Iqtisodiy siyosat ko'zlagan maqsadlar va ularga erishish vositalari yaxlitligini talab qiladi.

## XULOSA

Aytish joizki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qurilish ishlari samaradorligini yanada oshirish maqsadida ayrim qurilish vazirliklari tugatildi. Masalan, O'zsanoatfuqaroqurilish, O'zqishloqxo'jalik qurilishi, O'zkolxoz qurilishi, O'zsuvqurilishidavlat kontserni va hokazolar faoliyati to'xtatildi. Mulkchilikning turli shakllariga o'tkazilgan ixtisoslashgan davlat kontsernlari, kompaniyalar, davlat-aktsiyadorlik birlashmalari, uyushmalar tashkil qilindi. Ularning eng yiriklari sifatida "O'zsanoatxo'jalikqurilish" korporatsiyasi, "O'zmontajmaxsusqurilish" uyushmasi, "O'zdexqonchilikqurilish", "O'zjamoa-xujalikqurilish" davlat-shirkat birlashmalari, "Toshkentuyjoyinvestqurilish" korporatsiyasi faoliyat yuritib kelmoqda. Suv xo'jaligi va meliorativ ishlarni "O'zsuv-qurilish" davlat kontserni olib boradi. Energetika va elektrorashtirish vazirligi ham qurilish ishlarini bajaradi. Bu tashkilotlar Respublika



iqtisodiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan katta qurilishlarni olib bormoqda. Qurilish tashkilotlari, qurilish industriyasi korxonalari, transport, loyiha-konstruktorlik va boshqa tashkilotlarni ixtiyoriy asoslarda birlashtiradi. Davlatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bozor iqtisodiyotining yanada jadallahuviga sharoit yaratmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limatlar tarixi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2007.
2. Qodirov A. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. -T.: ToshDTU, 2010.
3. Nabixo'jayev A. Makroiqtisodiy barqarorlik. Ma'ruza materiali. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, 2015- yil 15-dekabr.
4. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus. Economics. 19 th edition, McGraw-Hill Companies. USA. 2009
5. Boltaev M.J.Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi .Ma`ruza matni.2000 yil.
6. Видяпин В.И., Добрынин А.И., Журавлева Г.П., Тарасевич Л.С.Экономическая теория. Учебник. Под общ. ред. авторов изд., испр. и доп.- М.: ИНФРА-М, 2005.
7. Булатов А.С. Экономика. Учебник. Под ред. автора перераб. и доп. 3-е изд.- М.: Экономист, 2005.

Internet saytlari

8. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
9. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
10. [www.mineconomv.uz](http://www.mineconomv.uz)
11. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
12. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
13. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
14. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)